

JADIDCHILIK HARAKATINING YO‘LBOSHCHILARI

Dinora Eshboyeva,

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi
dinoraeshboyeva23@gmail.com

ANNOTATSIYA

XIX asr oxiri XX asr boshlarida turk xalqlari orasida millatni ma’rifatli qilish, mamlakatni mustaqil taraqqiyot yo‘liga olib chiqish va mustamlakachilikdan xalqni ma’rifatli qilish orqali qutulish uchun harakat boshlandi. Bunday harakatlar tarixga “Jadidchilik” nomi bilan kirdi. Bizning o‘lkamizda o‘sha davrda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi jadidchilik harakatining yo‘lboshchilari tarix sahnasiga chiqdilar. Maqolada jadidchilik harakati yo‘lboshchilarining millar va mamlakat taraqqiyoti uchun olib borgan kurashlari aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, jadid maktablari, ilm-fan, kutubxona, maqola, teatr, asar.

LEADERS OF THE JADIDISM

ABSTRACT

At the end of the 19 th century and the beginning of the 20 th century, a movement began among the Turkish people to enlighten the nation, to lead the country to the path of independent development, and to get rid of colonialism by enlightening the people. Such actions went down in history under the name "Jadidism". At that time in our country, the leaders of the Jadidism, such as Mahmudhoja Behbudi, Munavvargari Abdurashidkhanov, Abdulla Avloni, appeared on the stage of history. The article discusses the struggle of the leaders of the Jadidism for the development of the nation and the country.

Key words: Mahmudhoja Behbudi, Abdulla Avloni, modern schools, science, library, article, theater, work.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bizning o‘lkamizda yoshlarni ilimli qilib, xalqning savodini oshirish va bu orqali mustamlakachilikka qarshi kurashib, davlatni ozod va rivojlangan davlatlar qatoriga ko‘tarish uchun kurash boshlandi. Bu kurash tarix sahifalariga “Jadidchilik” nomi bilan muhrlandi. Mahmudxo‘ja Behbudiy

jadidchilarning yo‘lboshchilaridan biri bo‘lib, 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida dunyoga keladi. Bolaligida otasidan yetim qolgan yosh Mahmudxo‘ja tog‘alari qo‘lida tarbiya oladi. Ulg‘ayib qozilik va muftiylik sohalarida faoliyat olib boradi. Uning jadidchilik faoliyati Ismoil G‘aspirali nomi bilan bog‘liq. 1893-yili Ismoil G‘aspirali Samarqand, Buxoro va Toshkent shaharlarida bo‘lib, ushbu shaharlarda yangi usul maktablari ochish g‘oyasini ilgari suradi. Shundan so‘ng ko‘plab shaharlarga sayohat qilib, u yerdagi rivojlanish va ilm-fanni ko‘radi. So‘ngra vatanga qaytib yangi usul maktablari ochishning tashabbuskorlaridan bo‘ladi. Ushbu maktablar uchun “Tarixi islom” (1909), “Risolai asbobi savod” (“Savod chiqarish kitobi”, 1904), “Kitobat ulatfol” (“Bolalar xati”, 1908), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”, 1905), “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”, 1906), “Amaliyoti islom” (1908) kabi asarlarni chop ettiradi. Shuningdek, hozirgacha unga tegishli 300 dan ortiq maqolalar ham topildi. Bu ilmiy meros yoshlarning ilmi bo‘lishi va mamlakatning taraqqiyoti uchun edi.

XX asr boshlarida “Qiroatxonai Behbudiya” nomli kutubxonani ochiladi. Ushbu kutubxonadan o‘sha davrda ko‘plab insonlar bahramand bo‘lishadi. Vadud Mahmud o‘z maqolasida: “Behbudiy boy kutubxonaning egasi edi. 1000 jildlik kitob fondiga ega bo‘lgan bu mutolaaxona barcha uchun doimo ochiq edi. O‘sha vaqtlarda bu kitoblarning har biri oltin bahosida hisoblanardi. Behbudiy bu joyning binosi va boshqa xarajatlarini o‘z cho‘ntagidan to‘lar edi”, deb yozadi. Behbudiyning jadidchilik faoliyati o‘sha davr uchun muhim ahamiyat kasb etadi. U xalqning ilmi bo‘lishi va davalarning taraqqiy etishi uchun qo‘lidan kelgan barcha ishlarni qiladi. O‘zbek adabiyotida dastlabki drama – “Padarkush” ham Mahmudxo‘ja Behbudiyning qalamiga mansub.

Abdulla Avloniyning g‘oyalari ham yoshlar va davlat kelajagi uchun muhim ahamiyatga egadir. 1878-yili Toshkentda tavallud topgan Abdulla yoshlik chog‘idanoq ilmga muhabbatli bo‘lib ulg‘aydi. Maktab va madrasada ta‘lim olgan bo‘lishiga qaramay, ko‘p bilimga o‘zi mustaqil o‘qish orqali erishgan edi. Turkistonning ziyolilari qatoridan joy egallagan Abdulla Avloniy Vatanni ozod va farovon davlatga aylantirish, yoshlarni ilm olishiga ko‘maklashish va ularni ilmga bo‘lgan muhabbatlarini oshirish uchun ko‘plab sa’y harakatlarni amal oshirdi. Xususan, 1907-yilda o‘z uyida “Shuhrat” nomli gazeta nashr qildi. Yoshlarni ilm olishiga alohida e’tibor qaratgan holda o‘z mahallasidan usulu jadid maktabini ochdi. Ushbu maktab uchun “Adabiyot yoxud milliy she’rlar”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni”, “Turkiy guliston yoxud axloq” kabi darslik va o‘qish kitoblari nashr ettirdi. shuningdek, ma’rifatchilik harakatining faoliyatiga moddiy yordam berish uchun xayriya tashkilotini tashkil etdi. “Nashriyot” shirkati tuzib, Xadrada “Maktab kutubxonasi” kitob do‘konini ochdi. Bu harakatlar yoshlarni ilm olishi, xalqni

ma'rifatli bo'lishi uchun qaratilgan edi. Abdulla Avloniy o'zining "Turon" deb ataluvchi teatr jamoasini tuzib, turkiston shaharlari bo'ylab insonlarni sahna ko'rinishlari orqali dunyoqarashini kengaytirish uchun harakat qildi. Ushbu teatrdan Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" asari ham sahnalashtirildi.

Jadidchilik harakatining yo'l boshchilari doimo xalqni ma'rifatli qilish va yoshlarni ilmiy qilish uchun harakat qildilar. Ular jaholatga qarshi ma'rifat orqali kurashish yo'lini tanladilar va vatan mustaqilligi uchun hamshu yo'ldan yurdilar. Ular bugungi kunda tinch va farovon hayotda yashashimiz uchun bor kuch va imkoniyatlarini ishga soldi. Albatta, mustaqillikka erishganimizdan so'ng ularning nomlariga hurmat ko'rsatilmogda. Ularni xotirasini abadiylashtirish uchun davlatimiz tomonidan ularning asarlari nashr ettirilmogda, ko'cha va maktablarga ularning nomi berilmogda. Hayotlari va faoliyati chuqur tadqiq qilinib, ilmiy ishlar amalga oshirilmogda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Begali Qosimov. Mahmudxo'ja behbudiy hayoti va faoliyati. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2015 yil 3-son.*
2. *M.Xayrullayev. Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomlar, adiblar). – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr, 2001.*
3. *Hoji Muin. Buyuk ustozimiz Behbudiy afandi. Mehnatkashlar tovushi gazetasi, 1920.*
4. *R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, O'Ubaydullayev. Vatan tarixi 2 – T.: "Sharq", 2010.*
5. *Naim Karimov. Mahmudxo'ja Behbudiy – Toshkent. 2010.*
6. *https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Avloniy*